



DUNYO BO'YICHA ATMOSFERANING IFLOSLANGANLIGINI TAHLIL QILISH

Ernazarova Xulkar Abduforih qizi,

Erdonova Nazokat Abdulatif qizi

Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti

Anotatsiya:

Hozirgi kundagi dolzarb muammolardan biri bu atrof-muhitni muhofaza qilish, biologik xilma-xillikni saqlash, iqlim o'zgarishlarining oldini olish, ozon qatlamining yemirilishi, cho'llanish, atmosfera havosining ifloslanishi kabi global ahamiyatga ega masalalarni hal etish hozirgi kunda insoniyat oldida turgan eng muhim vazifalardan hisoblanadi. Shunga ko'ra atmosfera ifloslanganligini oldini olish chora tadbirlari eng muhim masala bo'lib qolmoqda.

Аннотация:

Одной из актуальных проблем современности является решение таких глобально значимых вопросов, как охрана окружающей среды, сохранение биоразнообразия, предотвращение климатических изменений, разрушение озонового слоя, опустынивание, загрязнение атмосферного воздуха. Соответственно, важнейшим вопросом остаются меры по предупреждению загрязнения атмосферы.

Abstract:

One of the urgent problems of our time is the solution of such globally significant issues as environmental protection, conservation of biodiversity, prevention of climate change, destruction of the ozone layer, desertification, and air pollution. Accordingly, measures to prevent atmospheric pollution remain the most important issue.

Kalit so'zlar: Ifloslanish, sanoat chiqindilari, maishiy chiqindilar, kimyoviy o'g'itlar, karbonat angidrid, oltingugurt dioksid.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th February, 2025

Atrof-muhit ifloslanishi, havo, suv, tuproq va shovqin kabi tabiiy resurslarning inson faoliyati natijasida zararli moddalar bilan ifloslanishi holatidir. Bu ifloslanish ekotizimlarni buzib, o'simliklar, hayvonlar va inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Atrof-muhit ifloslanishi bugungi kunda biz duch kelayotgan eng jiddiy global muammolardan biridir. Ifloslanishning asosiy sabablari orasida sanoat faoliyatlari, qishloq xo'jaligida kimyoviy moddalar qo'llanilishi, transport vositalari chiqindilari va chiqindi boshqaruvi muammolari bor.

Atrof-muhit ifloslanishi turlari:

Havo ifloslanishi: Zavodlar va transport vositalaridan chiqadigan tutun, karbonat anhidrid, oltingugurt dioksid va boshqa gazlar atmosferani ifloslaydi. Havo ifloslanishi nafas olish yo'llari kasalliklari va iqlim o'zgarishiga olib keladi.

Suv ifloslanishi: Sanoat chiqindilari, maishiy chiqindilar va qishloq xo'jaligi dori vositalari suvlarga tushib, ichimlik suvi manbalarini va suv ekotizimlarini ifloslaydi. Bu holat suv jonivorlarining hayotini xavf ostiga qo'yadi va inson salomatligiga zarar keltiradi.

Tuproq Ifloslanishi: Kimyoviy o'g'itlar, zararkunanda dori vositalari va sanoat chiqindilari tuproqni ifloslaydi. Bu o'simlik qoplamini yo'q qilishi va oziq-ovqat zanjiriga zaharli moddalar kirishiga sabab bo'lishi mumkin.

Shovqin Ifloslanishi: Yo'l harakati, qurilish ishlari va sanoat mashinalaridan keladigan ortiqcha shovqin inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shovqin ifloslanishi, stress, uyqu buzilishlari va eshitish muammolariga olib kelishi mumkin. Atrof-muhit ifloslanishini oldini olish uchun qanday chora-tadbirlar ko'rish kerak:

Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish: Fosil yoqilg'ilarning yonishi havo ifloslanishiga va issiqxona gazlari chiqindisiga olib keladi. Quyosh, shamol va gidroelektr kabi qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish atrof-muhit ifloslanishini kamaytirishda muhim qadamdir.

International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th February, 2025

Qayta ishlash va chiqindi boshqaruvi: Chiqindilarni qayta ishlash va organik chiqindilarni kompost qilish, atrof-muhit ifloslanishini kamaytirishning samarali usullaridan biridir. Plastik, shisha va metall kabi materiallarni qayta ishlash tabiiy resurslarni saqlashga hissa qo'shadi.

Yashil hududlarni himoya qilish va ko'paytirish: Daraxtlar va o'simliklar karbonat angidridni yutib, havo sifatini yaxshilaydi. Parklar va o'rmonlarni himoya qilish va yangi yashil hududlarni yaratish atrof-muhit salomatligi uchun zarurdir.



1-rasm. Yashil iqtisodiyot strategiyasi

Atrof-muhitga do'st mahsulotlardan foydalanish: Kundalik hayotda kimyoviy tarkibli tozalash vositalari, zararkunanda dori vositalari va yuvish vositalari o'rniga atrof-muhitga do'st muqobillaridan foydalanish suv va tuproq ifloslanishini kamaytiradi.

Jamoat transporti va transport muqobillari: Shaxsiy avtomobillardan foydalanishni kamaytirish, jamoat transport vositalaridan foydalanish va velosiped kabi atrof-muhitga do'st transport usullarini tanlash, havo ifloslanishini kamaytirishda samarali.

Ta'lim va xabardorlik yaratish: Atrof-muhit ongini oshirish va odamlarni atrof-muhitni himoya qilishga o'rgatish, uzoq muddatda ifloslanishni kamaytirishda muhim rol o'ynaydi.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th February, 2025

Ekologiyaning ifloslanishi dunyodagi har oltinchi o'limning sababi ekani ma'lum bo'ldi. Atrof-muhit ifloslanishining maishiy turlaridan o'lim darajasi kamayganiga qaramay, sanoat ifloslanishidan o'limlar soni bir yarim baravar oshdi. Tadqiqotchilar ifloslanishni kasallik va erta o'lim bo'yicha dunyodagi eng katta ekologik xavf omili deb atadi. Olimlarning hisob-kitoblariga ko'ra, har yili dunyoda har oltinchi o'limga shu sabab bo'ladi. Bundan tashqari, atrof-muhit ifloslanishining turli shakllari tufayli 2015 yilda jahon iqtisodiyoti 4,6 trillion dollar yo'qotdi.

Olimlarning yozishicha, qashshoqlik bilan bog'liq uy xo'jaliklarining ifloslanishidan o'lim holatlari kamayganiga qaramay, atmosfera degradatsiyasi va qo'rg'oshin kabi zaharli kimyoviy moddalardan ifloslanishdan o'lim holatlari sezilarli darajada oshgan. Olimlarning hisob-kitoblariga ko'ra, havo ifloslanishi har yili 6,5 milliondan ortiq kishining hayotiga zomin bo'ladi, qo'rg'oshin va boshqa kimyoviy moddalar esa har yili 1,8 million kishining o'limiga sabab bo'ladi. Bu ko'rsatkich 2015 yildan buyon 7 foizga, 2000 yildan buyon esa 66 foizdan ko'proqqa o'sdi. O'z tahlillarida olimlar maishiy chiqindilar yoki kanalizatsiya kabi an'anaviy ifloslantiruvchi jihatni zamonaviy sanoat ifloslanishidan ajratib oldi. Tadqiqotda aytilishicha, an'anaviy ifloslantiruvchi moddalardan o'lim dunyo bo'ylab kamayib borayotgan bo'lsa-da, ular Afrikada asosiy muammo bo'lib qolmoqda. Ekologiyaning ifloslanishi dunyodagi har oltinchi o'limning sababi ekani ma'lum bo'ldi. Atrof-muhit ifloslanishining maishiy turlaridan o'lim darajasi kamayganiga qaramay, sanoat ifloslanishidan o'limlar soni bir yarim baravar oshdi. 17 may, seshanba kuni The Lancet Planetary Health jurnalida e'lon qilingan global o'lim va atrof-muhitning ifloslanishiga oid tadqiqotga ko'ra, har yili 9 millionga yaqin odam havo, tuproq va suv ifloslanishidan nobud bo'ladi.

Tadqiqotchilar ifloslanishni kasallik va erta o'lim bo'yicha dunyodagi eng katta ekologik xavf omili deb atadi.

International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th February, 2025



2-rasm. Angren shahrida atmosfera xavosining ifloslanganligi

Olimlarning hisob-kitoblariga ko‘ra, har yili dunyoda har oltinchi o‘limga shu sabab bo‘ladi. Bundan tashqari, atrof-muhit ifloslanishining turli shakllari tufayli 2015 yilda jahon iqtisodiyoti 4,6 trillion dollar yo‘qotdi (jahon yalpi ichki mahsulotining 6,2 foizi).

Olimlarning yozishicha, qashshoqlik bilan bog‘liq uy xo‘jaliklarining ifloslanishidan o‘lim holatlari kamayganiga qaramay, atmosfera degradatsiyasi va qo‘rg‘oshin kabi zaharli kimyoviy moddalardan ifloslanishdan o‘lim holatlari sezilarli darajada oshgan. Olimlarning hisob-kitoblariga ko‘ra, havo ifloslanishi har yili 6,5 milliondan ortiq kishining hayotiga zomin bo‘ladi, qo‘rg‘oshin va boshqa kimyoviy moddalar esa har yili 1,8 million kishining o‘limiga sabab bo‘ladi. Bu ko‘rsatkich 2015 yildan buyon 7 foizga, 2000 yildan buyon esa 66 foizdan ko‘proqqa o‘sdı. Bu, birinchi navbatda, nazoratsiz sanoatlashtirish va urbanizatsiya oqibatlari bilan bog‘liq.

International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th February, 2025



3-rasm. Toshkent shahrida atmosfera xavosining ifloslanishi monitoring natijalari
Tadqiqotchilar, shuningdek, aholi sonining ko‘payishi, qazib olinadigan yoqilg‘ilarning ishlatilishi va «kimyoviy moddalar bo‘yicha tegishli milliy va xalqaro siyosat»ning yo‘qligi atrof-muhit ifloslanishidan o‘lim holatlarining ko‘payishiga sabab ekanini ko‘rsatdi. Tadqiqotda qayd etilishicha, ifloslanish bilan bog‘liq o‘limlarning katta qismi – 90 foizi past va o‘rta daromadli mamlakatlarda sodir bo‘ladi. «Atrof-muhitning ifloslanishi inson va sayyoralar salomatligiga ekzistensial tahdid bo‘lib, zamonaviy jamiyat barqarorligiga tahdid keltirib chiqaradi», deb xulosa qiladi olimlar. «Biz qozonda o‘tirib, asta-sekin yonib ketyapmiz», deb yozgan tadqiqot hammuallifi va global Pure Earth notijorat tashkiloti rahbari Richard Fuller.

Adabiyotlar ro‘yxati

- 1.Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq / Sh.M. Mirziyoyev. - Toshkent : O‘zbekiston, 2016. — 56 b.
- 2.Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash — yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th February, 2025

qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr /Sh.M.Mirziyoev. — Toshkent: „O‘zbekiston“, 2017. — 48 b.

3.Бодрова А.С., Безденежных С.И. Перспективы развития и применения комплексов с беспилотными летательными аппаратами: конф. г. Коломна, 2016. 274 с.

4.Организация защиты населения и территорий от чрезвычайных ситуаций: учебник. – 3-е изд., перераб. и доп. / В. А. Седнев, С. И. Воронов, И. А. Лисенко, Е. И. Кошечая, Н. А. Савченко, Н. И. Седих.– М.: Академия ГПСМЧСРоссии, 2014. – 229 с.

5.Чрезвычайные ситуации и мирного и военного времени. Характеристика зон чрезвычайных ситуаций: методическая разработка / [сост.: В. А. Горишний, В. Б. Чернетсов, Л. Н. Борисенко]. – Н. Новгород, НГТУ, 2006.

6. Прогнозирование чрезвычайных ситуаций природного характера: Б.А. Храмов, Т.Г. Болотских, А.М. Юрев. Методическое указаний. –Белгород: Изд-во БГТУ им. В.Г. Шухова, 2006. – 25с.

7. Абдурахманова А.Д. Чрезвычайные ситуации и защита населения: Учебное пособие. ТГТУ. – Ташкент. 2020. -203 с.